

**«BOBURNOMA» MATNIDA FOYDALANILGAN SAJ'LAR JON
LEYDEN VA UILYAM ERSKIN TARJIMALARI MISOLIDA**

Sherg'oziyev Shuhrat Sheraliyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch
doktoranti

Annotasiya

Maqolada Andijon aholisining til xususiyatlari va Alisher Navoiyni turkiy tilda ijod qilganligini saj' orqali ifoda etganligi haqida fikr yuritilgan. Matnda foydalanilgan sajlar Jon Leyden va Uilyam Erskin tarjimalarida qandau aks ettirilgani haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: turkiy til, saj', tarjima, aholi, matn, me'muar asar, ijtimioy va madaniy xayot, milliy urf odatlar, arxaizm, joy nomlari,

Аннотация:

В статье рассматриваются языковые особенности жителей Андижана и тот факт, что произведения Алишера Навои были написаны на языке туркий, выраженном посредством саджа. Дана информация о том, как садж, использованные в тексте, отражены в переводах Джона Лейдена и Уильяма Эрскина.

Ключевые слова: язык туркий, интерпретация, перевод, население, текст, литературное произведение, общественно-культурная жизнь, национальные обычаи, архаизм, топонимы,

Abstract

The article examines the linguistic characteristics of the inhabitants of Andijan and the fact that the works of Alisher Navoi were written in the Turkish language, expressed through saj. Information is given on how the saj used in the text are reflected in the translations of John Leyden and William Erskine.

Key words: turkiy language, interpretation, translation, population, text, literary work, socio-cultural life, national customs, archaism, toponyms,

Bobur o'zi uchun qadrli bo'lgan va bolaligi o'tgan Andijonni tabiati, joylashuv o'rni, mevalari bilan birgalikda shahar aholisining til xususiyatlarini

tasvirlashda ham saj'dan mohirona foydalangan.

«Eli turkdur. Shahri va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim *Xirida nash'u namo topibtur, bu til biladur.*» [1.35] Matnda keltirilgan jumladan ko'rishimiz mumkinki Andijon shaharning tub aholisi eli turk ekanligi, bozorlarida savdo qilishda va boshqa ijtimoiy hayotda asosan turkiy tilda muloqot qilganliklari bois bu tilni bilmaydiganlar yo'q. Alisher Navoiy turkiy tilda ijod qilgan asarlari Andijon aholisi orasida ham mashhur ekanligi, yozishmalar va davlat ishlari shu tilda amalga oshirilganligi va aholning tili o'sha davr adabiy tili bilan bir xil bo'lgan. Alisher Navoiy Husayn bayqaro hukmronligi davrida Hirotning ijtimoiy va madaniy xayotida juda katta rol' o'ynagan. Navoiy asarlari asosan Hirotida yozilib butun Xurosonda mashhur bo'lsada Andijon shahari tili bilan bir xil ekanligini yozadi. Bobur aholining muloqot va til xususyatlarini ifodalashda *turkdur, yo'qtur, rosttur* saj' sifatlari orqali va *topibtur, biladur* kabi fe'li saj'lardan foydalanib jumalarga ravonlik va ohangdorlik beradi. Bu o'z navbatida o'quvchi uchun tushunarli va yodda saqlashini ta'minlaydi. «Boburnoma»dek tarixiy me'muar asarni tarjima qilish amaliyotida tarjimonlar oldida deyarli barcha vazifalar turadi. Asl matnni tashkil etuvchi iboralar, matn, arxaizm, joy nomlari, madaniy va milliy urf odatlar, voqealik va qaxramonlar sifatlarini ifodalovchi saj' kabi san'at turini tushunmagan tarjimon uchun o'zbek an'anaviy nasrining mohiyatini to'liq ochib berish oson emas. Bu borada Q. Musayev quyidagi fikrlarni bildiradi: «O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san'atkorning bu soxadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tugdiradi. Chunki badiiy maxorat sirlarini xar tomonlama mukammal egallab olgan kalamkashgina mazkur ijod maxsuli bulmish fikrni asliymonand tarzda ifoda etish san'atini uzida puxta singdirib olgan iste'dod soxibi sifatida tulaqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o'ta mas'uliyatli ishning uddasidan chikishi mumkin» [2.3] Albatta bunday nodir memuar asarni asliyatdagi ma'nosini saqlagan holda o'zga bir tilga tarjima qlish

mushkul vazifadir. Bilamizki tarixiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan aslityada keltirilgan ma'lumotlar haqida naqadar chuqur bilimga ega bo'lishi, asar yozilgan davlat aholisining ijtimoiy iqtisodiy hayoti, o'sha davr hukmdorlari va amaldorlari, ilm fan doira vakillari to'g'risida berilgan ma'lumotlarni kitobxonga aslicha yetkazish eng oliy maqsaddir.

Yuqorida «Boburnoma»dan keltirilgan jumalarda muallif tomonidan ishlatilgan saj'larni ingliz tarjimonlari qay darajada tarjima qilganlarini ko'rib chiqamiz. Andijon aholisi xusuiyatlarini tasvirlan saj'lar tarjimasini Leyden-Erskin tarjimasini misolida: «*The inhabitant of the country are all Turks, and there is none in town or market who does not understand the Turki tongue. The common speech of the people of this country is the same as the correct language of composition, so that the works of Mir Ali Shir, surnamed Nawai, though he was bred and flourished at Heri, are written in this dialect.*» [3.2](*Shahar aholisining barchasi Turklar, shaharda yoki bozorda Turkiy tilni tushunmaydiganlar yo'q. Aholining so'zlashadigan tili adabiy til bilan bir hil bo'lib garchi Mir Ali Sher, Navoiy taxallusi bilan Hirotda tarbiya topib kamolga yetgan bo'lsa ham uning asarlari shu shevada yozilgan. (MT)*Leyden-Erskin aslyatda kelgan eli turkdur saj'ini -country are all Turks tarzida, *turki bilmas kishi yo'qtur sa'jini - who does not understand the Turki tongue tarzida, Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Xirida nash'u namo topibtur, bu til biladur jumlasidagi saj'larni- The common speech of the people of this country is the same as the correct language of composition, so that the works of Mir Ali Shir, surnamed Nawai, though he was bred and flourished at Heri, are written in this dialect.*saj'ini esa tarjimada, (Shahar aholisining barchasi Turklar, Turkiy tilni tushunmaydiganlar yo'q Hirotda tarbiya topib kamaloga yetgan, shu shevada yozilgan.) tarzida bergan. Leyden-Erskin tarjimasida faqatgina ikki jumlada saj' shaklini ko'rishimiz mumkin ya'ni aslyatdagi *eli turkdur* va *turki bilmas kishi yo'qtur*, tarzida kelgan jumlasini *country are all Turks - who does not understand the Turki tongue* holda berilgan bo'lib ingliz tilidagi Turks va Turki so'zlari ohang jihatdan

jumlaga biroz saj' ruhiyatini beradi. Jumlaning asliyatda kelgan saj'larning qolgan qismlari tarjimada berilmagan bo'lib asliyatda kelgan o'quvchiga yetkazish uchun saj'larni ma'no jihatdan so'zlardan foydalanib tarjima qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari.-Toshkent.Fan.,2003.-B.3.
3. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826.
4. Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. Вестник современной науки, (9- 1), 97-99.
5. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.
6. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
7. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi «Davlat ilmiy nashriyoti». Toshkent.2006.
9. Sarimsaqov B. O'zbek adabiyotida saj'. -Toshkent. «FAN» 1978